



**MUMTOZ ADABIYOT AN'ANALARI: ALISHER NAVOIY VA
ERKIN VOHIDOV G'AZALLARI TIMSOLIDA**

Ergasheva Nilufar Akramjon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti

Jurnalistika va o'zbek filologiyasi

fakulteti 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin solur" g'azali va Erkin Vohidovning shu g'azalga bog'langan muxammasi tahlil qilinadi. Ikkala asarda ham hijron, dard va sevgi motivlari o'zaro bog'liq holda tasvirlangan. Navoiy ijodida hijron tasviri bardavomlik va sabr falsafasi asosida yoritilsa, Erkin Vohidov bu iztirobni zamonaviy ruh bilan qayta talqin qiladi.

Abstract:

This article analyzes Alisher Navoi's poem(ghazal) " Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin solur " and Erkin Vahidov's poem related to this poem (ghazal). In both works, the motifs of emigration, pain and love are interrelated. In Navoi's work, the image of emigration is illuminated based on the philosophy of endurance and patience, while Erkin Vahidov reinterprets this suffering with a modern spirit.

Kalit so'zlar:

Alisher Navoiy, Erkin Vohidov, hijron, kema, daryo, tashbeh, istiora, badiiy san'at, mumtoz adabiyot, zamonaviy lirika va boshqalar.



Keywords:

Alisher Navoi, Erkin Vahidov, emigration, ship, river, allegory, metaphor, art, classical literature, modern lyrics and others.

Adabiyot – bu inson qalbining ko‘zgusi, hayot uchun katta bir oynadir. Yashashga bo‘lgan ishtiyoq har doim ustun keladi. Hayotning esa muhabbat va ishqqa ehtiyoji bor. Dengiz otashi buyuk kemanding buyuk manzilga chorlayotir. Hijron esa bu olamning ajralmas bo‘lagi bo‘lib, sevgi va armon orasidagi mukammal ko‘prik sifatida namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy hijronni bardavom iztirob, sabr va ichki kurash bilan yelkadosh qo‘ygan bo‘lsa, Erkin Vohidov ushbu dardni yanada jonliroq, zamonaviy shuurga yaqin ohangda talqin etadi. Alisher Navoiy:

Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin solur,

Mavjlig‘ daryo kibi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘olur.

Raxt – aslida safar oldi olinadigan kiyim-kechak va zaruriy narsalardir.

Oy - g‘azalning boshidan oxirigacha bo‘lgan eng katta ramz. Oy bu oshiq, oy bu ma’shuqa. G‘azalni o‘qir ekanmiz, ishq daryosiga safarga chiqqan oyni ko‘z oldimizga keltiramiz. Oy safarga tadorik ko‘rar ekan, oshufta ko‘nglini ham daryo kabi to‘lqinlanayotganini tashbehga aylantiradi. Yana boshqa baytda ishqini yanada yuksak ifodalab:

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,

Vahki, borib termulub ko‘z, mungrayib jonim qolur.

Ushbu baytda istiora badiiy san’ati qo‘llangan bo‘lib, ko‘ngil kemaga qiyoslanib, daryoda qolgan orzular ramziga aylanadi. *Mumtoz adabiyotda hijron*



faqatgina ayriliq emas, balki qalb poklanishining muhim bosqichi sifatida tasvirlanadi. Alisher Navoiy hijronni ramz va badiiy san'atlar orqali chuqur ma'noda ifodalagan. Inson ruhining "komil inson" darajasiga yetishi uchun ham balki, daryodagi oyga intilish va muhabbat aks etgandir:

Kirma savdo bahrig'a olamdin istab sudki,

Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg'olur.

Hazrat Navoiy daryo va kema timsollarini uyg'unlashtirgan holda inson ruhiy holatini tasvirlaydi. Shoir hijronni tabiat orqali aks ettirib, dardni nafaqat shaxsiy iztirob, balki butun olam iztirobi sifatida ifodalagan.

Oyga bo'lgan muhabbat, ilohiy sevgi bir necha yuz yillardan so'ng XX asr boshlarida o'zbek xalqining yetuk shoiri Erkin Vohidovning muxammasida ham aks etdi:

Ayriliq oni yaqindur, kema yo'l bongin cholur,

Vah, meni tashlab firoqqa, yor yiroqqa yo'l olur,

Jon borib jono bilan, sohilda bir jismim qolur,

Har qachonkim kemaga ul oy safar rahtin solur,

Mavjlig' daryo kabi oshufta ko'nglim qo'zg'olur.

Erkin Vohidov Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasida Navoiy ifodalagan iztirobni yanada shiddatliroq ko'rsatadi. Agar Navoiy hijronni bardavom va sokin fojia sifatida tasvirlagan bo'lsa, Erkin Vohidov qahramonining iztiroblari kuchli



hissiyotlar bilan jo‘sh uradi. Oshiq ruhi kemada, jismi esa sohilda qolishini cheksiz muhabbat timsoli sifatida tasvirlaydi. Tazot san’atini qo‘llab, jonni ketishi, jismni qolishini bir-biriga qarshi qo‘yadi. Keyingi baytlarda tashbeh seziladi, “*Kim yoshing daryosidur har sorikim el ko‘z solur*”. Yana bir baytda oshiq kinoya qilib, “*Yig‘lama, ey ko‘z, nedin sohilga chiqmas kema deb*” o‘ziga taskin beradi. U oldindan o‘zini sevgidan tiyishga chaqirgan, biroq yurak bo‘ysunmagan. Yor ketgach, ko‘z yoshi daryoga aylangan, lekin endi yig‘lashdan naf yo‘q:

Ey falak, bas, yig‘lama, yo‘q foyda, ul oy kemada,

O‘rtada daryoyu men bu joyda, ul oy kemada,

Kelmas endi, oyda ne, ming oyda, ul oy kemada,

Sabr ko‘ngulda, ko‘ngil ul oyda, ul oy kemada,

Vahki, borib, termulib ko‘z, mungrayib jonim qolur.

Shoir taqdirga tan beradi, lekin hijron og‘rig‘i davom etadi. Uning tasallisi shundaki, kema ko‘zdan g‘oyib bo‘lmagan, shuning uchun u yana bir lahza yor tomon termulishi mumkin. “*O‘rtada daryoyu men bu joyda, ul oy kemada*” deb oshiq va yor o‘rtasidagi ajralish, ayriliq tasviri tazod orqali ifoda qilinadi. “*Vahki, borib, termulib ko‘z, mungrayib jonim qolur*” misrasida esa husni ta’lilning go‘zal ifodasi ko‘rinadi. Muxammas so‘ngida:

Bormi Erkinga ul ustozdin yaqin, ey piri dayr,

G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin, ey piri dayr,



Ilgiga chunkim Navoiy boda kishtisin olur.

Erkin Vohidov hazrat Navoiydan buyuk ustoz yo‘q ekanini butun olamga ham bot-bot ta’kidlamoqchidek go‘yo. Ayriliqning buyuk iztirob ekanini soda, XX asr odamiga tushunarli tarzda yetkazib bera oldi. Alisher Navoiy g‘azaliga bog‘langan muxammas – bu shunchaki mumtoz merosga hurmat emas, balki mumtozlik va zamonaviylikning uyg‘un ko‘rinishidagi san’at asaridir.

Ikkala asar ham o‘z davrining shoh asarlari bo‘lishi bilan birga bir necha yuz yillardan so‘ng ham o‘z qimmatini yo‘qotmaydigan xazinadir. Navoiy g‘azalida sabr va bardavomlik bilan to‘yingan hijron manzarasini chizsa, Erkin Vohidov muxammasi ushbu dardni ichki monolog va dramatik uslubda boyitadi. Ikkala shoir she’riyatida ham inson qalbi va tabiat uyg‘unligi yaqqol sezilib, *adabiyotning zamondan zamonga o‘tuvchi ko‘prik ekanligi yaqqol namoyon bo‘ladi*. Bu ikki asar hijron mavzusini turli zamonlarda qay tarzda talqin qilish mumkinligini ko‘rsatib, mumtoz va zamonaviy she’riyatning uyg‘unlashuvini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Toshkent: :O‘zbekiston”, 2015. 115- bet.
2. S.Shomurodova, XX asr o‘zbek adabiyotida devonchilik an’anasi: mavzu, tarkib, vazn va badiiy san’atlar/ Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.187 sahifa, –Samarqand-2022
- 3.“To quyosh sochgayki nur” T, Sharq 2018
4. Erkin Vohidov, “Tong nafasi” 1961
5. www.kx.davron.uz



6. Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. MAT. 20 tomlik. 4-

tom. Toshkent: "Fan", 1989. 203-bet.

7. Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. MAT. 20 tomlik. 6-tom. Toshkent:

"Fan", 1990. 194-bet.

8. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 2007.

186-189-betlar.